



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

SINTAKTIK PARADIGMALARDA MAZMUNNING IFODALANISH USULLARI TADQIQI

Fazilbek ORZIBEKOV *

Annotatsiya

Maqolada sintaktik paradigmalarda mazmunning ifodalanish usullari tadqiqi haqida ma'lumotlar berilgan. Til tizimi doirasida semantika va sintaksis o'rtasidagi o'zaro munosabat tilshunoslikda eng ko'p tadqiq qilingan va muhokama qilingan masalalardan biridir. Sintaktik paradigmalar ikki qatlamning kesishgan nuqtasida turadi. Paradigma ichidagi har bir sintaktik variant, o'zining grammatika qurilma orqali ma'lum bir semantik niyatni amalga oshiradi. Bu holat "shakl va mazmun integratsiyasi" deb nomlanuvchi tamoyilga asoslanishi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: mazmuniy grammatika, til tizimi, semantika va sintaksis, gap sathi, sintagmatik munosabat, semantik bog'lanish, integratsiya, sintaktik shakllar, variantlilik, sintaktik vosita, semantik vazifa, funksional lingvistika, sistem-funksional, grammatika nazariya, experiencial (tajribaviy), interpersonal (munosabatli), textual (matniy).

Study of Methods of Expression of Content in Syntactic Paradigms

Abstract

The article provides information on the study of the methods of expressing content in syntactic paradigms. The relationship between semantics and syntax within the language system is one of the most studied and discussed issues in linguistics. Syntactic paradigms stand at the intersection of two layers. Each syntactic variant within a paradigm, through its grammatical device, implements a certain semantic intention. This is scientifically justified by the principle known as "integration of form and content".

Keywords: semantic grammar, Language system, semantics and syntax, sentence level, syntagmatic relation, semantic connection, integration, syntactic forms, variantness, syntactic means, semantic task, functional linguistics, system-functional, grammatical theory, experiential (experiential), interpersonal (relational), textual (textual).

Kirish

Til tizimi doirasida semantika va sintaksis o'rtasidagi o'zaro munosabat tilshunoslikda eng ko'p tadqiq qilingan va muhokama qilingan masalalardan biridir. Ushbu munosabat o'z tabiatiga ko'ra ikki qatlamli: bir tomondan, sintaksis – bu

* Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi, fozilbek319@gmail.com

shakliy tuzilishdir; ikkinchi tomondan, semantika – bu mazmunga oid qatlamdir. Shunga ko‘ra, semantik komponent sintaktik qurilmalarning mazmuniy mohiyatini belgilaydi, ularni so‘zlashuv vaziyatida ma’noli va funksional qiladi.

Gap sathida bir so‘zning ikkinchi so‘z bilan bog‘lanishi ularning sintagmatik munosabatga kirishuvi uchun imkoniyat yaratadi. Bu jarayonda ikki narsa farqlanadi: 1. Ma’noga asoslangan sintagmatik munosabat. 2. Shakll bog‘lanishga asoslangan sintagmatik munosabat (Jl.3.CoBa, 1970, 85-b.). L.Z.Sova ta’kidlaganidek, gap sathidagi birliklarning o‘zaro bog‘lanishi nafaqat grammatik shakl, balki mazmun asosida ham yuzaga keladi. Bu ikki qutbli yondashuv, shakll va semantik sintagmatika, til birliklarining o‘zaro aloqalarini chuqur va tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Bu turdagi munosabatlar, asosan, semantik moslik asosida shakllanadi. Masalan, “*shirin meva*” birikmasida sifat (shirin) va ot (meva) o‘zaro semantik uyg‘unlikka ega. Bunda leksik-semantik moslik til birliklari o‘rtasida tabiiy, mazmuniy bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Bu holatda til birliklarining morfologik shakli, sintaktik roli yoki grammatik moslashuvi asosiy mezon bo‘ladi. Masalan, “kitobni o‘qidim” gapida ot va fe‘l shakll jihatdan bog‘langan (tushum kelishigi + fe‘l).

L.Z.Sova bu yerda sintaktik va semantik bog‘lanishlar ustma-ust emas, balki har xil mexanizmlarga ega ekanini aniq ko‘rsatadi. Bu fikr ayniqsa funksional-sintaktik tadqiqotlarda muhim: ba’zi hollarda shakll bog‘lanish mavjud bo‘lsa-da, semantik aloqadorlik bo‘lmasligi mumkin, va aksincha.

L.Z.Sovaning fikri lingvistik birliklar o‘rtasidagi munosabatlarni faqat tuzilish jihatdan emas, balki mazmuniy o‘lchamda ham tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv orqali sintagmatik munosabatlar yanada chuqurroq tahlil qilinadi va bu, o‘z navbatida, mazmuniy grammatika, nutq tuzilishi va semantik sathlarni tadqiq qilish uchun keng nazariy asos yaratadi.

Ko‘rinadiki, sintaktik paradigmalar ikki qatlamning kesishgan nuqtasida turadi. Paradigma ichidagi har bir sintaktik variant, o‘zining grammatika qurilma orqali ma’lum bir semantik niyatni amalga oshiradi. Bu holat “shakl va mazmun integratsiyasi” deb nomlanuvchi tamoyilga asoslanadi. Har bir gap modeli – bu nafaqat grammatik birlik, balki axborot beruvchi semantik birlik hamdir. Shu bois, sintaktik paradigmalarni semantik yondashuv asosida tahlil qilishda ularning mazmunni qanday ifodalashi muhim o‘rin tutadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot sintaktik paradigmalarda mazmunning ifodalanish usullari tadqiqini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u korpus lingvistikasining miqdoriy va sifat tahlili usullariga tayandi. Tadqiqot jarayonida bir necha manbalardan foydalanildi:

Ushbu integratsiya doirasida semantikaning ifodalanish usullari bir necha asosiy yoʻnalishda koʻzga tashlanadi:

1. *Qatʼiy sintaktik shakllar orqali maʼno ifodasi* – yaʼni maʼlum bir tuzilish faqat bitta maʼno bilan bogʻliq boʻladi. Masalan, “*U boradi*” – kelajak zamon harakati.

2. *Variantlilik orqali maʼno modulatsiyasi* – yaʼni bir asosiy maʼno turli sintaktik variantlar orqali oʻzgaruvchan ravishda ifodalanadi.

3. *Sintaktik vositalarning semantik vazifa orttirishi* – yaʼni odatda shakliy birlik hisoblangan elementlar (masalan, inversion, urgʻu, pozitsiya) semantik mazmunga ega boʻladi.

Masalan, “*U maktabga boradi*” va “*Maktabga u boradi*” gaplarini olaylik. Ikkalasida ham asosiy maʼno – harakat va yoʻnalish – saqlanib qoladi. Biroq urgʻu va axborot markazi farqli boʻlishi mumkin. “*U maktabga boradi*” gapida subyekt markazda turadi, “*Maktabga u boradi*” gapida esa yoʻnalish urgʻulanadi. Bu esa sintaktik qurilma orqali semantikaning qanday aniqlik va tafsilot bilan ifodalanishini koʻrsatadi.

Haqiqatdan ham, zamonaviy funksional lingvistika nazariyalarida aynan mana shu shakl–mazmun munosabati til birliklarini tahlil qilishda asosiy yondashuv sifatida qaraladi. Masalan, M.Xollidayning sistem-funksional grammatika nazariyasiga koʻra, har bir til tuzilishi bir vaqtning oʻzida bir necha semantik vazifani bajaradi: *experencial* (tajribaviy), *interpersonal* (munosabatli), *textual* (matniy). Sintaktik paradigmalar esa bu vazifalarni turli koʻrinishda aks ettiruvchi va boshqaruvchi vosita sifatida qaraladi (M.Halliday, 1985, 387-b.).

Shunday qilib, semantikaning sintaktik paradigmalarda ifodalanishi bu ikki qatlamning chuqur uygʻunlashganligi, ular oʻrtasida shakllangan qatʼiy va oʻzgaruvchan bogʻliqliklarni ochib berish orqali tahlil qilinadi. Paradigmalarni semantik nuqtayi nazardan tahlil qilish esa ularning qanday maʼno zaminiga asoslanishi va bu maʼnolarni qanday sintaktik vositalar orqali yuzaga chiqarishini koʻrsatadi.

Natijalar

Kichik tadqiqotimizda mazmuniy grammatika nutqiy faoliyat doirasida sintaktik paradigmalarining semantik va pragmatik xususiyatlari haqida amaldagi ilmiy qarashlarni boyitadi, til sistemasi va uning kommunikativ mexanizmlarini chuqurroq anglashga xizmat qilishi tahlil qilindi. Olingan natijalar hozirgi ingliz va oʻzbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy maʼlumot beradi.

Semantikaning sintaktik paradigmalarda ifodalanishi birgina tarkibiy qurilma bilan cheklanmay, balki bu mazmunning aniq va mantiqan aniqlangan vositalar orqali ifodalanishini taqozo etadi. Bunda sintaktik vositalar — soʻz tartibi, urgʻu, zamon va modal qurilmalar — semantik mazmunning yetkazilishi, anglashiluvchanligi va

kommunikativ aniqligida hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. Har bir sintaktik paradigma, o‘z navbatida, ana shu vositalar orqali so‘zlashuv vaziyatiga mos holda semantik tafovutlarni yuzaga chiqaradi.

Muhokama

So‘z tartibi (word order) sintaktik tizimning eng asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, u ma’lumot oqimining tartibini, axborot markazining joylashuvini, diqqat markazini aniqlashga xizmat qiladi. So‘z tartibining o‘zgarishi orqali bir xil asosiy ma’no turlicha uslubiy yoki pragmatik talqinda ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi quyidagi gaplarni olaylik:

Dadamni yana tush ko‘rdim. (O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi, 63-bet)

Yana dadamni tush ko‘rdim.

Dadamni tush ko‘rdim yana.

Tush ko‘rdim yana dadamni.

Bu to‘rt gapda sintaktik paradigma birligi saqlanib qolgan. Ammo semantik urg‘u – ya’ni diqqat markazi – turlicha taqsimlangan: birinchi gapda subyekt ustuvor, ikkinchisida yo‘nalish, uchinchisida esa harakat diqqat markazida, to‘rtinchisida esa takroriy harakat diqqat markazida. Shunday qilib, so‘z tartibi — bu semantik pozitsiyalash vositasi bo‘lib, nutq egasining maqsadini, gap axborotining qaysi qismini muhim deb hisoblayotganini bildiradi.

Ingliz tilida esa so‘z tartibi qat’iyroq, ammo baribir semantik vazifani ifodalashda sezilarli farq qiladi:

She gave him a book.

It was a book she gave him.

What she gave him was a book.

Bularning har biri bir xil semantik asos – ya’ni berish akti – asosida qurilgan bo‘lsa-da, axborot oqimi, fokus va sintaktik ifoda uslubi turlicha. Bu holatni tematik-rematik tuzilishni ifodalash vositasi sifatida ko‘rish mumkin. Tildagi har bir gap tematik (tanish) va rima (yangi axborot) qismlaridan iborat bo‘lib, so‘z tartibi bu qismlarni semantik jihatdan ajratishga xizmat qiladi.

Urg‘u (emphasis, intonation) va inversiya (invertirlangan so‘z tartibi) semantik ma’no vazifasini ta’kidli shaklda berishga xizmat qiladi. O‘zbek tilida quyidagicha:

O‘sha paytda AYOL aytgan gapni eslab qoldim. (urg‘u “ayol”da)

AYOL o‘sha paytda aytgan gapni eslab qoldim.

Gapni eslab qoldim, ayol o‘sha paytda aytganini. (uslubiy inversiya)

Bu gaplar semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, nutqdagi urg‘u markazi o‘zgaradi. Sintaktik qurilma – ayniqsa inversiya – semantik urg‘uni ifodalash uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu xususiyat ingliz tilida ayniqsa faol qo‘llaniladi:

I do remember what she said. (emphatic do)

Never have I seen such a thing. (inversiya orqali kuchaytirilgan semantika)

It was she who said that. (cleft-sentence, ma'lumotni bo'laklarga ajratish orqali urg'u berish)

Ushbu tuzilishlar semantik jihatdan muhim komponentlarni oldinga chiqarish va tinglovchining e'tiborini shu elementlarga qaratishga xizmat qiladi.

Zamonning ifodalanishi sintaktik paradigma ichida semantik niyatni aniqlovchi vositalardan biridir. Aynan zamon orqali harakatning *davomiyligi*, *vaqt oralig'i*, *ketma-ketlik*, shuningdek, *xulosa*, *faraz*, *kechikkanlik* singari ma'nolar shakllantiriladi. O'zbek tilida:

U keldi. – aniq o'tgan zamon

U kelgan. – bilvosita xabar yoki kutilmaganlik

U kelmoqda. – davomiy harakat

U kelar. – taxmin, doimiylik

Shuningdek, zamon paradigmasi so'zlashuv vaziyati vosita bo'lib ham xizmat qiladi: harakat vaqtini ko'rsatish bilan birga, so'zlovchi-tinglovchi munosabatini ham bildiradi. Ingliz tilida bu yanada nozik farqlarga ega:

He came. – o'tmishdagi aniq holat

He has come. – hozirgi holatga ta'siri bor

He had come. – boshqa harakatdan oldingi o'tmish

He would come. – shartli yoki noaniq kelajak

Zamon ma'no tuzilmasini ierarxiklashtiradi, harakatlar o'rtasida vaqt, sabab, natija kabi bog'liqliklar o'rnatadi. Sintaktik paradigma ichida zamon shakllarining variantlari semantik tafsilotlarni ifodalashda yordam beradi.

Modal vositalar semantikaning subyektiv komponentlarini – *xohish*, *ehtimollik*, *zarurat*, *ruxsat* – ifodalaydi. O'zbek tilida:

U kelsa kerak. – taxmin

U kelishi mumkin. – ehtimollik

U kelishi shart. – zarurat

U kelmoqchi. – niyat

Ingliz tilida:

He might come.

He must come.

He is to come.

He would come.

Bu haqda fikr yuritganda S.Boymirzayeva quyidagilarni yozadi: Matn mazmuniy mundarijasining shakllanishida zamon ko'rsatkichlarining o'rni haqida to'liq fikr-xulosaga kelish uchun yetarli emas. Bu muammoni hal qilish uchun dastlab grammatik tizim hodisalaridan biri sifatida qaralib kelinayotgan zamon kategoriyasining matn mazmuniy tuzilishidagi mohiyatini aniqlash lozim bo'lsa,

keyingi o'rinda ushbu kategoriyaning turli kommunikativ maqsadlarni ko'zlaydigan nutqiy tuzilmalar tarkibida namoyon bo'ladigan xususiyatlarini o'rganish talab etiladi (С.Ў.Боймирзаева, 2010, 31-b.). S.Boymirzayeva zamon kategoriyasini faqat grammatik sistemaning shakll elementi sifatida emas, balki matn mazmunini tashkil qiluvchi semantik-kommunikativ omil sifatida ham ko'rib chiqish lozimligini ta'kidlaydi. Bu qarash zamonaviy tilshunoslikdagi funksional-sistemaviy yondashuvga to'liq mos keladi. Faqat voqea qachon sodir bo'lganini emas, balki bu voqeaning mazmuniy tarkibdagi o'rnini, axborot oqimidagi mantiqiy ketma-ketlikni va subyektiv baholashni ham ifodalaydi.

Matnda zamon shakllari xronologik tartibni belgilaydi; voqealarning sabab-natija munosabatini ifodalaydi; psixologik vaqt (subyektiv kechinma) yoki epistemik vaqt (bilim darajasi bilan bog'liq) ifodalanishini ta'minlaydi; pragmatik nuqtayi nazardan, muallifning voqeaga bo'lgan munosabati va nutq tuzilishini ochib beradi. Masalan, hozirgi zamon shaklining retrospektiv matnda ishlatilishi ko'pincha emotsional yaqinlik yoki voqeani jonli ko'rsatish maqsadida qo'llanadi. S.Boymirzayeva to'g'ri ta'kidlaganidek, zamon kategoriyasi turli nutq turlarida (hikoya, ta'rif, izoh, bahs) turlicha funksional vazifa kasb etadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda paradigma ichidagi har bir sintaktik variant, o'zining grammatika qurilmasi orqali ma'lum bir semantik niyatni amalga oshirishi lingvopragmatik nuqtayi nazardan o'rganildi. Zamon kategoriyasining semantik va pragmatik mohiyatini matnshunoslik doirasida chuqurroq tadqiq etish zarurligini anglatadi. Bu yondashuv grammatika va matnshunoslik o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Matnni vaqt tuzilishiga ega bo'lgan semantik model sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Har bir zamon shaklining kommunikativ niyatga mos xatti-harakat ekanini ochib beradi. Shu jihatdan S.Boymirzayevaning bu fikri ilmiy-nazariy asosli, lingvistik tekshiruvlar uchun yo'naltiruvchi, va amaliy tahlilga ochiq konseptual yondashuv deb baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Halliday M.A.K. (1985). *An introduction to functional grammar*. E.Arnold.

Боймирзаева С.Ў. (2010). *Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар*. Филол. фан. док. ...диссертацияси автореферати. Тошкент.

Сова Л.З. (1970). *Аналитическая лингвистика*. Наука.